

# “O‘zkimyosanoat” AJ ishchi guruhi biriktirilgan hududlarda izchil faoliyat olib bormoqda

// 16.01.2026

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/o-zkimyosanoat-aj-ishchi-guruhi-biriktirilgan-hududlarda-izc>



O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-sentabrdagi “Aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish tadbirini o‘tkazish to‘g‘risida”gi Farmoni ijrosi doirasida “O‘zkimyosanoat” AJ ishchi guruhi o‘zlari biriktirilgan hududlarda izchil faoliyat olib bormoqda.



Xususan, Qashqadaryo viloyatining Dehqonobod va Farg'ona viloyatining Yozyovon tumanlarida ro'yxatga olish jarayonlarini belgilangan tartib asosida tashkil etishga ko'maklashilmoqda. "O'zkimyosanoat" AJ mas'ullari hamda tumanlardagi shtab a'zolari tomonidan korxona va tashkilotlarda xodimlar o'rtasida tushuntirish ishlari olib borilib, aholini ro'yxatga olish jarayonida ishtirok etish hamda ma'lumotlarni [census.stat.uz](http://census.stat.uz) rasmiy platformasi orqali kiritish bo'yicha ishlar amalga oshirilmoqda.



Shuningdek, mahalla fuqarolar yig'ini a'zolari bilan hamkorlikda aholi o'rtasida targ'ibot-tushuntirish ishlari olib borilmoqda.



Mazkur tadbir mamlakatimizda aholining ijtimoiy-demografik holatini, mehnat resurslarini hamda qishloq xo'jaligi salohiyatini aniq hisobga olish, shuningdek, kelgusida davlat dasturlari va strategik rejalarni ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.



Eslatib o'tamiz, tadbir 15-yanvardan 31-yanvargacha – o'n yetti kun davomida census.stat.uz sayti orqali OneID tizimi yordamida onlayn ro'yxatdan o'tish tarzida bo'lib, ikkinchi bosqich 4-fevraldan 28-fevralgacha mahalla yettiligi a'zolarining uyma-uy yurib, planshet orqali ro'yxatga olish jarayonlari bilan yakunlanadi.



